INSON HUQUQLARI BO‘YICHA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY MARKAZI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.26/2025.27.12.Yu/S.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

INSON HUQUQLARI BO‘YICHA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY MARKAZI

SHARAPOV SHUXRAT SHOKIROVICH

INSONNING TA’LIM OLISH HUQUQINI TA’MINLASH (XALQARO VA MILLIY TAJRIBA)

12.00.13 – Inson huquqlari

Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

UO‘K: 342.7:37

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Sharapov Shuxrat Shokirovich
Insonning ta’lim olish huquqini ta’minlash (xalqaro va milliy tajriba).....3

Sharapov Shuxrat Shokirovich
Ensuring the human right to education (international and national experience)..….....24

Шарапов Шухрат Шокирович
Обеспечение права человека на образование (международный и национальный опыт)……..44

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
List of published works
Список опубликованных работ.....49

INSON HUQUQLARI BO‘YICHA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY MARKAZI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.26/2025.27.12.Yu/S.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

INSON HUQUQLARI BO‘YICHA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY MARKAZI

SHARAPOV SHUXRAT SHOKIROVICH

INSONNING TA’LIM OLISH HUQUQINI TA’MINLASH (XALQARO VA MILLIY TAJRIBA)

12.00.13 – Inson huquqlari

Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Yu1212 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respubilkasi Milliy markazida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (http://nhrc.uz/oz/menu/avtoreferat) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Ochilov O'tkirbek Sayfullayevich** yuridik fanlar doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Alimov Gaybulla Alimovich** yuridik fanlar doktori, dotsent
	Mirhamidova Mahinnora Nurullaevna yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat Universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.26/2025.27.12.Yu/S.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil " 7 " iyul kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100029, Toshkent shahar, Islom Karimov ko'chasi, 15-uy. Tel.: (99871) 239 40 23; e-mail: info@nhrc.uz).

Dissertatsiya bilan Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (13-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100029, Toshkent shahari, Islom Karimov ko'chasi, 15-uy. Tel.: (99871) 239 40 23.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "__" _____ kuni tarqatildi.

(2026-yil "__" _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

M.A. Tillabayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

I.T.Turgunov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi v.b., yuridik fanlar doktori, dotsent

G. Yuldasheva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

KIRISh (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda hozirgi globallashuv va bilimga asoslangan jamiyat sharoitida ta’lim olish huquqi inson huquqlari tizimining fundamental va ajralmas unsuri sifatida e’tirof etilmoqda hamda u BMTning Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakti hamda YUNESKO tomonidan ilgari surilgan “Education 2030” (“Ta’lim 2030”) global kun tartibida mustahkamlangan. Ushbu huquqning real ta’minlanish darajasi jamiyatda ijtimoiy adolat, iqtisodiy barqarorlik va inson kapitali rivojini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri ekani ta’lim siyosatiga oid tahliliy hisobotlarda ham alohida ta’kidlanadi[1]. Raqamli jamiyatga o‘tish, masofaviy ta’lim shakllarining kengayishi hamda sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim tizimiga jadal joriy etilishi insonning ta’lim olish huquqini amalga oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratayotgan bo‘lsa-da, ayni paytda ta’lim olish huquqidan teng foydalanish, ta’lim sifati va inklyuzivlikka oid yangi huquqiy va ijtimoiy muammolarni ham yuzaga keltirmoqda.

Jahon miqyosida insonning ta’lim olish huquqini ta’minlash masalasi xalqaro inson huquqlari standartlari va milliy huquq tizimlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlashni talab etuvchi murakkab ilmiy-huquqiy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xalqaro shartnomalarda belgilangan standartlarni milliy qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotiga samarali integratsiya qilish jarayonida, jumladan BMTning Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo‘yicha qo‘mitasi tomonidan belgilangan ta’limning mavjudligi, foydalanish imkoniyati, maqbulligi va moslashuvchanligi (4A) tamoyillarini amaliyotga tatbiq etishda, bir qator institutsional va huquqiy muammolar saqlanib qolmoqda. Insonning ta’lim olish huquqini ta’minlashning xalqaro va milliy tajribasini qiyosiy-huquqiy tahlil asosida chuqur, tizimli va kompleks o‘rganish ushbu sohadagi mavjud ilmiy bo‘shliqlarni to‘ldirish, nazariy yondashuvlarni rivojlantirish hamda amaliy huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish nuqtayi nazaridan alohida ilmiy tadqiqot o‘tkazishni taqozo etadi.

Mamlakatimizda ta’lim olish huquqini to‘laqonli ta’minlash maqsadida tizimli islohotlar izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti BMT Bosh Assambleyasining 80-sessiyasidagi nutqida mamlakatimiz ta’lim tizimidagi izchil islohotlar haqida so‘z yuritib, maktabgacha ta’lim qamrovi 27 foizdan 78 foizga, oliy ta’lim bilan qamrov esa 9 foizdan 42 foizga oshganini, eng muhimi esa o‘qituvchi kasbining obro‘si va nufuzini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylanganini ta’kidladi[2]. Shu bilan birga ta’kidlash joizki, insonning ta’lim olish huquqini to‘liq ta’minlash, ayniqsa

[1] Education at a Glance 2025 OECD Indicators // URL:https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2025/09/education-at-a-glance-2025_c58fc9ae/1c0d9c79-en.pdf?utm (murojaat qilingan sana: 10.12.2025).

[2] Мирзиёев, Ш.М. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 80-сессиясидаги нутқи // URL: https://president.uz/oz/lists/view/8525 (murojaat qilingan sana: 05.11.2025).

ijtimoiy jihatdan zaif guruhlar uchun teng va inklyuziv ta’lim muhitini yaratish hamda ta’lim tizimida adolat, shaffoflik va mas’uliyatni qaror toptirish sohasida hanuz tizimli muammolar mavjud. Bu holat davlat organlari va boshqa manfaatdor sub’ektlar o‘rtasida samarali hamkorlikni kuchaytirishni, shuningdek ta’lim olish huquqining amaliy ijrosi, monitoringi va huquqiy kafolatlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar o‘tkazishni taqozo etadi.

Mazkur dissertatsiya ishi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023), “Ta’lim to‘g‘risida”gi (2020), “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi (2019), “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi (2020) qonunlar, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi (2020), “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2026), “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi (2019), farmonlari, shuningdek boshqa tegishli normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlashda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovasion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ta’lim olish huquqining umumiy jihatlari mamlakatimiz olimlari A.X. Saidov, M.A. Tillabayev, A.R. Mo‘minov, G. Yuldasheva, H.B. Boboev, F.X. Bakaeva, A.B. Gafurov, B.I. Ismailov, M.X. Rustambaev, L.A. Saidova, A.A. Tulaganov, M.T. Turg‘unov, Sh.G‘. Asadov, X.M. Yunusov, N.A. Nugmanov, M.U. Tursunova, S. Jakbarov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Akademik A.X. Saidovning “Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquq” asarida ta’lim olish huquqi insonning asosiy va ajralmas huquqlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Muallif mazkur huquqning xalqaro va milliy manbalarini kompleks tahlil qilib, uni amalga oshirishda davlat majburiyatlari hamda shaxs huquq va erkinliklari o‘rtasida muvozanatni ta’minlash masalasiga alohida e’tibor qaratadi. A.R. Mo‘minov va M.A. Tillabayev o‘z ilmiy va o‘quv-uslubiy ishlarida ta’lim olish huquqini keng yoritgan. Ularning “Inson huquqlari” darsligida mazkur huquq insonning asosiy huquqlaridan biri sifatida e’tirof etilib, uning xalqaro va milliy huquqiy asoslari hamda amaliyotdagi qo‘llanilishi tahlil qilingan. “Bola huquqlari” darsligida esa bolalarning ta’lim olish huquqi va uning huquqiy asoslari alohida ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, dissertatsiyaviy tadqiqotlar doirasida M. Tursunova O‘zbekistonning ta’lim sohasidagi xalqaro-huquqiy hamkorligini takomillashtirish masalalarini tahlil qilgan bo‘lsa, Sh. Asadov fuqarolarning bilim olish huquqining

konstitutsiyaviy asoslari, uni amalga oshirish mexanizmlari va kafolatlarining ta’lim siyosati bilan uyg‘unligini ilmiy asoslab bergan.

Xorijiy mamlakatlar olimlarining ilmiy tadqiqotlari hamda yuridik sohaga oid adabiyotlarda ta’lim olish huquqi, uni amalga oshirish va ta’minlashning ijtimoiy, siyosiy-huquqiy hamda metodologik jihatlariga alohida e’tibor qaratilgan. K. Tomashevskiy, K. Beyter, P. Alston, A. Chapman, V. Munoz, P. Villalobos, A. Sen, F. Tibbitts, K. Bajaj kabi xorijlik olimlar, shuningdek Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlaridan B. Strashun, E. Kozlova, A. Kozirin, E. Martinenko, M. Baglay, S. Bugashev, K. Chepenko, K. Cherkasov, O. Malseva va boshqalarning ilmiy izlanishlari bu yo‘nalishning dolzarbligini tasdiqlaydi[1]. Xorijiy tadqiqotchi K. Tomashevskiy ta’lim olish huquqini shaxsning boshqa barcha huquq va erkinliklaridan samarali foydalanishini ta’minlovchi “kalit huquqi” sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, mazkur huquqning to‘liq ta’minlanishi insonning boshqa huquqlarini amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi, aks holda esa ulardan foydalanishni cheklaydi. Bu yondashuv ta’lim olish huquqining inson huquqlari tizimidagi markaziy va integrativ ahamiyatini namoyon etadi.

Bugungi kunga qadar ta’lim olish huquqi va uni ta’minlash masalalari yurtimizda va xalqaro miqyosda tadqiq etilgan bo‘lsa-da, mavjud izlanishlarda insonning ta’lim olish huquqi tushunchasining huquqiy tavsifi, uni ta’minlashning o‘ziga xos xususiyatlari va tarkibiy qismlari, xalqaro va mintaqaviy mexanizmlar, xorijiy tajriba hamda milliy qonunchilikni tizimlashtirish masalalari yetarlicha yoritilmagan. Ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlariga mansub shaxslar ta’lim olish huquqini ta’minlash mexanizmlarining shakllanishi va rivojlanishi chuqur tahlil qilinmagan. Shu bois, mazkur ilmiy ishda aynan ushbu omillarni kompleks ravishda o‘rganish, baholash va takomillashtirishga oid masalalarni tahlil qilish dolzarb ilmiy-nazariy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazining 2023-yilda tasdiqlangan ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ta’lim olish huquqini ta’minlashning tashkiliy-huquqiy muammolari yechimiga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan:

insonning ta’lim olish huquqining konseptual asoslari, o‘ziga xos xususiyatlari va tarkibiy qismlarini tizimli o‘rganish;

insonning ta’lim olish huquqini ta’minlashning xalqaro-huquqiy asoslari hamda mazkur huquqni ro‘yobga chiqaruvchi xalqaro mexanizmlarni kompleks o‘rganish va tahlil qilish;

insonning ta’lim olish huquqini ta’minlash bo‘yicha xorijiy davlatlarning ilg‘or amaliyotini tahlil qilish;

[1] Bu va boshqa manbalar dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan.

ta’lim olish huquqini ta’minlash sohasidagi milliy qonunchilikni takomillashtirish va tizimlashtirish hamda ushbu huquqni amalga oshirishning milliy mexanizmlarini rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarining ta’lim olish huquqini ta’minlash mexanizmlarining shakllanishi va rivojlanishi xususiyatlarini tadqiq etish.

Tadqiqotning ob’ekti ta’lim olish huquqini ta’minlash bo‘yicha tashkiliy-huquqiy asoslar, xalqaro va milliy-huquqiy mexanizmlar bilan bog‘liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini ta’lim olish huquqini ta’minlash faoliyati bilan bog‘liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi universal va mintaqaviy xalqaro-huquqiy hujjatlar, milliy va xorijiy mamlakatlar qonunchiligi, ilmiy-konseptual yondashuvlar hamda ularning amaliyotda joriy etilishi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida ilmiy bilishning analiz, sintez, induksiya, deduksiya, tarixiy va tizimli yondashuv, qiyosiy-huquqiy, statistik tahlil, sotsiologik so‘rov, kuzatish, mantiqiylik usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

insonning ta’lim olish huquqini ta’minlashning samarali kafolati sifatida pedagoglarni kasbiy vazifalariga aloqasi bo‘lmagan ishlarga jalb etishni taqiqlashga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni qonunchilikka kiritish asoslandi;

ta’lim olish huquqining uzviy tarkibiy qismi sifatida yoshlarning ilmiy, innovatsion va startap faoliyatini qo‘llab-quvvatlashning normativ-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish asoslab berildi;

maktabgacha va maktab ta’limi tizimida barcha ta’lim oluvchilar uchun qulay sharoit yaratish maqsadida amaldagi normativ, sanitariya va gigiena qoidalari reestrini qayta ko‘rib chiqish hamda zaruriy infratuzilmaviy imkoniyatlarni ta’minlash zarurati ilmiy asoslantirildi;

ta’lim olish huquqini ta’minlashning strategik yo‘nalishi sifatida ilmiy va innovatsion faoliyat uchun zamonaviy infratuzilmani rivojlantirishning normativ-huquqiy asoslarini mustahkamlash zarurati asoslantirildi;

ta’lim muassasalarida pedagog xodimlardan tashqari xodimlarning yillik asosiy va qo‘shimcha ta’tillarini ishlab chiqishda kategoriyaga bo‘lgan holda ta’tillarni belgilash zarurati asoslantirildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“insonning ta’lim olish huquqi”, “ta’lim olish huquqini ta’minlash”, “ayollarning ta’lim olish huquqi”, “mahkumlarning ta’lim olish huquqi”, “nogironligi bo‘lgan shaxslarning ta’lim olish huquqi” kabi tushunchalarga mualliflik ta’riflari ishlab chiqilgan;

milliy qonunchilikning tizimliligi va uyg‘unligi ta’lim olish huquqining asosiy kafolati ekanligi ta’kidlanib, ta’lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish hamda konstitutsiyaviy kafolatlarni mustahkamlash jarayonida mavjud normativ-huquqiy ziddiyatlarni bartaraf etish va kompleks tartibga solish

zarurati, xususan O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim kodeksini qabul qilish bo‘yicha takliflar ilmiy-nazariy jihatdan asoslantirilgan;

O‘zbekistonda insonning ta’lim olish huquqi konstitutsiyaviy normalarga asoslangan ko‘p darajali boshqaruv mexanizmi orqali ta’minlanayotgan bo‘lsa-da, bu huquqning kafolatli himoyasi mexanizmida bo‘shliq mavjud, maxsus vakolatli universitet ombudsmani institutini joriy etish va amaldagi huquqiy mexanizmga integratsiya qilish orqali mavjud bo‘shliqni to‘ldirish taklif etilgan;

ta’lim sohasida izchil islohotlarni, shuningdek turli darajadagi normativ-huquqiy hujjatlar o‘rtasida yuzaga kelayotgan ixtiloflarning ta’lim olish huquqini to‘liq ta’minlashga salbiy ta’sirini inobatga olib, qonunosti hujjatlarni chuqur tahlil qilish, ularni yagona mezonlar asosida tizimlashtirish va ziddiyatlarni bartaraf etish orqali huquqiy izchillik va kafolatlarni mustahkamlashga qaratilgan kompleks taklif ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotning axborot bazasi rasmiy, ilmiy va o‘quv-metodik manbalar, vakolatli tashkilotlar tomonidan e’tirof etilgan statistik ma’lumotlar, shuningdek ilgari chop etilgan monografik tadqiqotlar hamda sotsiologik so‘rovlar asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning ishonchliligi va dolzarbligi ta’minlangan. Ishda ilgari surilgan xulosalar, takliflar va tavsiyalar amaliyotda sinovdan o‘tkazilgan bo‘lib, ularning natijalari milliy va xalqaro ilmiy nashrlarda e’lon qilingan, shuningdek respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalari, avvalo, “Inson huquqlari”, “Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro huquq”, “Xalqaro huquq”, “Konstitutsiyaviy huquq”, kabi o‘quv kurslarining ilmiy-nazariy asoslarini boyitishda foydalanilishi mumkinligi bilan ahamiyatlidir.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ishlab chiqilgan ilmiy qoidalar, xulosalar va tavsiyalarning davlat organlari, inson huquqlari bo‘yicha milliy institutlar hamda ta’lim muassasalari faoliyatida qo‘llanish imkoniyati bilan belgilanadi. Xususan, bu natijalar ta’lim olish huquqi bo‘yicha tayyorgarlik va o‘qitishning samaradorligini oshirish, shuningdek O‘zbekistonda normativ hujjatlarni ishlab chiqish va qo‘llash amaliyotini takomillashtirishda qo‘llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot ishi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar quyidagilarda o‘z ifodasini topgan:

pedagogning mustaqilligiga aralashish, uning faoliyatini asossiz ravishda tekshirish, ta’lim oluvchilarning bilimini adolatli va xolis baholashiga bosim o‘tkazish hamda xizmat vazifalarini bajarishiga sun’iy to‘siqlar yaratishning taqiqlanishi hamda pedagoglarni o‘z kasbiy faoliyatiga aloqasi bo‘lmagan ishlarga, jumladan, obodonlashtirish yoki qishloq xo‘jaligi kabi majburiy jamoat ishlariga jalb etish amaliyotining noqonuniyligini asoslashga qaratilgan takliflari 2024-yil 1-fevral kuni qabul qilingan “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi O‘RQ-901-sonli O‘zbekiston Respublikasining Qonunining 5-moddasi 2-qismining 2-xat boshisiga “pedagogning kasbiy faoliyatiga aralashish, uning faoliyatini asossiz ravishda

tekshirish, pedagog tomonidan ta’lim oluvchilarning bilimlarini to‘g‘ri va xolis baholashga ta’sir ko‘rsatish, shuningdek unga o‘z xizmat majburiyatlarini bajarishga to‘sqinlik qilish” va 3-xat boshisiga “pedagogni kasbiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lmagan ishlarga, shu jumladan, hududlarni obodonlashtirishga va qishloq xo‘jaligi ishlariga jalb qilish” mazmunida o‘z aksini topgan (*O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2024- yil 19-martdagi 2/6-09-46-sonli dalolatnomasi*). Mazkur taklif pedagoglarning kasbiy faoliyatiga asossiz aralashuvlarning oldini olish, ularning mustaqiligini ta’minlash, ta’lim oluvchilarning bilimini adolatli va xolis baholash jarayoniga bosim o‘tkazilishini cheklash hamda pedagoglarni kasbiy vazifasiga aloqasi bo‘lmagan ishlarga jalb etishni taqiqlash orqali nafaqat o‘qituvchining mehnat huquqlarini, balki ta’lim oluvchilarning sifatli ta’lim olish huquqini ham kafolatlashga xizmat qiladi;

“Ta’lim olish uchun qulay shart-sharoit yaratish” taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoni 6-ilovasining Maktabgacha va maktab ta’limi sohasida islohotlarni chuqurlashtirish va tizim faoliyatini transformatsiya qilish bo‘yicha yo‘l xaritasining 5-bob, 22-bandiga “Umumiy o‘rta ta’lim tizimida ‘Ta’lim uchun qulay muhit’ dasturini amalga oshirish” tahririda kiritilgan (*O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2025 yil 4 noyabrdagi 05-20-7499-sonli dalolatnomasi*). Ushbu taklif Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida “ta’lim uchun qulay muhit” konsepsiyasini joriy etish, maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limni yo‘lga qo‘yish orqali barcha ta’lim oluvchilar uchun qulay sharoit yaratish, amaldagi normativ, sanitariya va gigiena qoidalari reestrini qayta ko‘rib chiqish hamda zaruriy infratuzilmaviy imkoniyatlarni ta’minlash jarayonlari samaradorligini oshirishga xizmat qiladi;

yoshlarning innovatsion faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ular tomonidan amalga oshiriladigan startap loyihalariga ko‘maklashuvchi tizimni muvofiqlashtirishga doir takliflar Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 8-avgustdagi 489-son qarorining 2-ilovasi bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi to‘g‘risidagi Nizomning 7-bandi yettinchi xat boshisida o‘z aksini topgan (*O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligining 2025-yil 6-noyabrdagi 01-05/4494-sonli dalolatnomasi*). Mazkur taklif, yoshlarning ilmiy va innovatsion faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning ijodiy hamda intellektual rivojlanishi uchun zarur sharoitlarni yaratish orqali ta’lim olish huquqining to‘laqonli va samarali ta’minlanishiga xizmat qiladi;

hududlarning intellektual va texnologik salohiyatini oshirish, ilmiy va innovatsion faoliyat uchun zamonaviy infratuzilmani shakllantirishga doir takliflar Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 8-avgustdagi 489-son qarorining 2-ilovasi bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi to‘g‘risidagi Nizomning 7-bandi

sakkizinchi xat boshisida o‘z aksini topgan (*O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligining 2025-yil 6-noyabrdagi 01-05/4494-sonli dalolatnomasi*). Mazkur taklif hududlarning intellektual va texnologik salohiyatini oshirish, ilmiy-innovatsion faoliyat uchun zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish va yoshlarning innovatsion g‘oyalarini amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini kengaytirish orqali insonning ta’lim olish huquqining mazmunini yangi sifat bosqichiga ko‘tarishga xizmat qiladi;

“Ta’lim muassasalarida yillik mehnat ta’tillarini berish”da pedagog xodimlardan tashqari xodimlarning yillik asosiy va qo‘shimcha ta’tillarini ishlab chiqishda ham xodimlarni kategoriyaga bo‘lgan holda ta’tillarni berish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 26-iyundagi “Pedagog xodimlar uchun yillik uzaytirilgan mehnat ta’tili davomiyligi me’yorlarini belgilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 263-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda O‘zbekiston ta’lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashining 2023-yil 27-iyundagi 23-qq va 10-7 “s”-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan O‘zbekiston ta’lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashining 2023-yil 17-iyuldagi 24-qq va 10-11 “s”-sonli qarori tarmoq kelishuviga kiritildi (*O‘zbekiston ta’lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi respublika kengashining 2024-yil 15-martdagi №911D-5/86-sonli dalolatnoma*). Mazkur takliflarning joriy etilishi ta’lim olish huquqining institutsional kafolatlarini mustahkamlab, pedagoglar va ish beruvchilar uchun aniq me’yorlar tizimini yaratdi hamda ta’lim boshqaruvida huquqiy aniqlik va samaradorlikni oshiradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning asosiy natijalari, ilmiy xulosalar xalqaro hamda respublika darajasidagi ilmiy-amaliy anjumanlar, jumladan 5 xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish nashr etilgan, jumladan OAK tomonidan ro‘yxatga olingan jurnallarda 5 ta, xalqaro jurnallarda 4 ta, ilmiy anjuman to‘plarida 7 ta maqola va tezis nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 (uch) bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 150 (bir yuz ellik) betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiq etilayotgan muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim

muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Insonning ta’lim olish huquqini ta’minlashning nazariy-huquqiy asoslari”** deb nomlanib, unda mavzuning ilmiy-nazariy jihatlari tahlil qilingan, “ta’lim olish huquqi” va “ta’lim olish huquqini ta’minlash” tushunchalari, ularning huquqiy tavsifi, ta’lim olish huquqining vujudga kelishi va rivojlanishi tendensiyalari kompleks tadqiq qilingan.

Mazkur bobning *“Insonning ta’lim olish huquqining konseptual asoslari va inson huquqlari sohasidagi o‘rni”,* deb nomlangan birinchi paragrafida ta’lim olish huquqi tushunchasi borasida turli qarashlar, yondashuvlar tahlil qilinib, uning huquqiy tavsifi ilmiy muammo sifatida batafsil o‘rganilgan.

A. Saidov, M. Tillabayev, A. Mo‘minov, G. Yuldasheva, A. Yakubov, K. Beiter, K. Halvorsen, S. Sherry, T. Soydan, Y. Karaman, A. Kazannik, B. Strashun, E. Kozlova, M. Baglaylarning “ta’lim olish huquqi” va “ta’lim olish huquqini ta’minlash” tushunchasining huquqiy tabiati haqidagi qarashlari tahlil qilinib, uning o‘ziga xos xususiyatlari va muhim elementlari ochib berilgan. Amalga oshirilgan tahlillar asosida mazkur tushunchaga mualliflik ta’rifi ishlab chiqilgan.

K. Beyter ta’lim olish huquqiga ta’rif berishga harakat qilib, uni bir vaqtning o‘zida iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarga tegishli ekanligini ta’kidlaydi. Shuningdek, boshqa huquqlar qatori, ta’lim olish huquqi ham davlatlardan barcha darajada: boshlang‘ich, o‘rta va oliy ta’lim olish imkoniyatini ta’minlash uchun sa’y-harakatlarni talab qiladi, degan mulohazani keltiradi[1]. Ta’lim olish huquqiga oid turli ilmiy yondashuvlar ushbu huquqning ko‘p qatlamli va murakkab tabiatini ochib beradi. Xususan, inson huquqlari nuqtayi nazaridan qaralganda, ta’lim huquqi faqat bilim olish emas, balki inson sha’ni, tengligi va erkinligini ta’minlovchi fundamental vosita sifatida qaraladi. Akademik A.X. Saidov ta’kidlaganidek, ta’lim olish huquqi O‘zbekiston Respublikasining har bir fuqarosiga ta’lim va tarbiyaning barcha shakllaridan teng va erkin foydalanish imkoniyatini kafolatlaydi. Ushbu huquqning amalda ro‘yobga chiqishi esa mavjud mustahkam moddiy-texnik baza bilan ta’minlanadi. Bu esa xalqaro standartlarga mos keluvchi milliy modelni shakllantirish yo‘lida muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Dissertant ta’lim olish huquqi va ta’lim olish huquqini ta’minlash tushunchasining mazmunini ochib berishga qaratilgan turli qarashlarni tahlil qilgan holda, ushbu institut o‘z ichiga quyidagi uchta jihatni qamrab olishi lozim, degan fikrni ilgari suradi:

[1] Beiter K.D. The protection of the right to education by international law: including a systematic analysis of Article 13 of the International Covenant on Economic, Social, and Cultural Rights / by Klaus Dieter Beiter. P.47.

birinchidan, ta’lim olish huquqining huquqiy ta’rifi xalqaro hamda milliy darajada hanuzgacha aniqlik kiritilmagan murakkab tushuncha bo‘lib, mavjud huquqiy hujjatlarda uning to‘liq va yagona ta’rifi mavjud emas;

ikkinchidan, bu holat milliy qonunchilikda terminologik va mazmuniy noaniqliklarga, ilmiy adabiyotlarda esa turlicha talqin va yondashuvlarning shakllanishiga sabab bo‘lmoqda;

uchinchidan esa, ta’lim olish huquqini samarali tartibga solish va amalga oshirish mexanizmlarini belgilash uchun ushbu tushunchaning aniq, izchil va huquqiy jihatdan asoslangan ta’rifini ishlab chiqish zarur.

Dissertant ta’lim olish huquqi borasida ilmiy qarashlar, xalqaro tashkilotlar va nohukumat tuzilmalarining yondashuvlarni tahlil qilgan holda, uning quyidagicha ta’rifini bergan: Ta’lim olish huquqi - bu har bir shaxsning tug‘ilgan paytdan boshlab umrining barcha davrlarida, millati, jinsi, tili, dini, irqiy yoki etnik mansubligi, ijtimoiy kelib chiqishi, salomatlik holati va iqtisodiy-madaniy sharoitidan qat’i nazar, sifatli, teng, uzluksiz, mavjud, ochiq, maqbul va moslashuvchan ta’lim xizmatlaridan erkin va kamsitishsiz foydalanish imkoniyatiga egaligini bildiruvchi, xalqaro va milliy huquq normalari bilan e’tirof etilgan fundamental konstitutsiyaviy ijtimoiy huquqdir.

Dissertant ta’limning turli bosqichlarini tahlil qilgan holda har bir bosqichda ta’lim olish huquqining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlab, ularning mazmunidan kelib chiqqan mualliflik ta’riflarini taklif etadi. Shu bilan birga milliy ta’lim jarayonining o‘ziga xos jihatlarini hisobga olib, tarbiya olish huquqi tushunchasini ham konseptual asosda ishlab chiqqan.

“*Insonning ta’lim olish huquqini ta’minlashning o‘ziga xos xususiyatlari va tarkibiy qismlari*” deb nomlangan ikkinchi paragrafda dissertant ta’lim olish huquqining amalda ro‘yobga chiqarilish jarayonini tahlil qiladi. U bu jarayonda mavjud bo‘lgan nazariy qarashlar, ilmiy izlanishlar hamda xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan konseptual yondashuvlar va amaliy tajribalarni kompleks ravishda o‘rganadi.

Dissertantning fikricha, ta’lim olish huquqini ta’minlashga oid ilmiy va nazariy yondashuvlar xilma-xil bo‘lib, ularni ikki asosiy guruhga ajratish mumkin: birinchisi - ta’limni ijtimoiy qadriyat sifatida tushunish, ikkinchisi esa uni shaxsning davlat oldidagi subyektiv huquqi sifatida talqin qilishdir. Subyektiv yondashuvga ko‘ra, ta’lim olish huquqi davlat zimmasiga aniq yuridik majburiyatlar yuklovchi asosiy ijtimoiy huquq bo‘lib, bu davlat siyosatida faollik, moliyaviy resurslar bilan ta’minlash va zarur institutsional choralarni qo‘llashni taqozo etadi, degan qarashni ilgari suradi.

Dissertant mazkur masalada xalqaro ekspert Katarina Tomashevskiy tomonidan ishlab chiqilgan “4A modeli” (mavjudlik, ochiqlik, maqbullik va moslashuvchanlik)ni ta’lim olish huquqining amalda ta’minlanishini baholovchi asosiy mezon sifatida e’tirof etadi.

Dissertantning fikricha, ta’lim olish huquqini ta’minlash zamonaviy huquqiy, pedagogik va ijtimoiy nazariyalar kesishmasida shakllanayotgan

kompleks yondashuv bo‘lib, u universal tamoyillar asosida har tomonlama yoritilishi zarur. Mazkur yondashuv davlatning “hurmat qilish, himoya qilish va ta’minlash” majburiyatlarini ta’lim siyosatida tizimli, o‘lchanadigan va resursga asoslangan tarzda amalga oshirishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, ta’lim huquqining ta’minlanishi faqat normativ-huquqiy va sud mexanizmlari bilan cheklanib qolmasdan, balki barqaror moliyalashtirish, sifatli infratuzilma, malakali pedagog kadrlar, samarali monitoring mexanizmlari hamda tenglik va inklyuzivlikka asoslangan siyosatlar orqali kompleks tarzda qo‘llab-quvvatlanishi lozim.

Mavjud yondashuvlar normativ-huquqiy yondashuv, 4A modeli, sifatli ta’lim konsepsiyasi, inklyuzivlik, umrbod ta’lim va ijtimoiy adolat g‘oyalari o‘zaro uyg‘unlikda ta’lim olish huquqining turli qatlamlarini ochib beradi: biri uning huquqiy asoslarini belgilasa, boshqasi real foydalanish imkoniyatlari va ta’lim sifati masalalarini yoritadi, yana biri esa tenglik, inklyuzivlik va uzluksizlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvlarning yagona, uzviy tizimda integratsiyalashuvi orqali ta’lim olish huquqining faqat e’tirof etilishi emas, balki uning amaliyotda real va samarali amalga oshirilishi ta’minlanadi.

Dissertant O‘zbekiston sharoitida ushbu konsepsiyalar asosida moslashuvchan, milliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan gibrid modelni ishlab chiqish zarurligini ilgari suradi va bu model ta’lim siyosatini inson huquqlari, barqarorlik va ijtimoiy adolat tamoyillari asosida rivojlantirishga xizmat qiladi, degan xulosaga keladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Insonning ta’lim olish huquqining ta’minlanishi bo‘yicha xalqaro tajriba va uning huquqiy jihatlari”** deb nomlanib, unda ta’lim olish huquqini ta’minlashning xalqaro mexanizmlari tizimlashtirilgan holda o‘rganilgan, shuningdek ta’lim olish huquqini ta’minlash bo‘yicha ushbu masalada yetakchi bo‘lgan ayrim xorijiy davlatlar amaliyoti tahlil qilingan.

Mazkur bobning *“Insonning ta’lim olish huquqini ta’minlashning xalqaro-huquqiy asoslari*” deb nomlangan paragrafida dissertant ta’lim olish huquqining xalqaro-huquqiy asoslarini tahlil qilib, uning rivojlanish bosqichlarini aniq hujjatlar va institutlar misolida ochib bergan. Xususan, 1948-yilgi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasidan boshlab, 1966-yilgi Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi pakt, Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida konvensiya, Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya, Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya kabi maxsus konvensiyalar hamda YUNESKOning 1960-yilgi Ta’lim sohasida kamsitishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi konvensiyasi kabi hujjatlar ta’lim huquqining huquqiy asoslarini belgilab bergani ta’kidlanadi.

Tadqiqotda shuningdek, BMTning maxsus ma’ruzachilari instituti, YUNESKO va YUNISEF tashabbuslari, Barcha uchun ta’lim, Dakar, Inchxon deklaratsiyalari hamda 4-Barqaror rivojlanish maqsadi kabi “yumshoq huquq” vositalari xalqaro maydonda inklyuziv, sifatli va umrbod ta’lim standartlarini

shakllantirishda hal qiluvchi rol o‘ynagani qayd etiladi. Dissertantning fikricha, xalqaro hujjatlar xilma-xilligi ijobiy jihatga ega bo‘lsa-da, ularning ijro mexanizmlarining sustligi, ratifikatsiya darajasining pastligi va milliy siyosatlarda uyg‘unlik yetishmasligi ta’lim huquqining to‘liq amalga oshirilishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Shu asosda dissertant ta’lim olish huquqining xalqaro-huquqiy asoslari nafaqat normativ darajada, balki monitoring, sharhlash va javobgarlik tizimi bilan birga ko‘rilishi zarurligini ta’kidlaydi. Uning xulosasiga ko‘ra, samarali ta’lim huquqini ta’minlash uchun davlatlar xalqaro standartlarni milliy qonunchilik va siyosat bilan uyg‘unlashtirib, real, barqaror va natijador mexanizmlarni joriy etishi lozim. Shu bilan birga ta’lim huquqi faqat deklarativ norma emas, balki inson sha’ni, tenglik va adolat tamoyillariga asoslangan, dinamik va kontekstual huquq sifatida talqin etilishi zarur.

Dissertant xalqaro va mintaqaviy hujjatlar o‘rtasidagi normativ tafovutlar, ularning turli darajadagi yuridik kuchi va amaliy tatbiq muammolarini tahlil qilib, huquqiy uyg‘unlashtirish ehtiyojini asoslaydi. U Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt kabi umumiy shartnomalar ta’lim huquqining asosiy prinsiplarini belgilasa, maxsus konvensiyalar (CEDAW, CRC, CRPD) zaif guruhlar kontekstida bu huquqni yanada chuqurlashtirishini ko‘rsatadi. YUNESKO deklaratsiyalari, 4-Barqaror rivojlanish maqsadi va Inchxon hujjatlari esa ushbu huquqning global strategik ahamiyatini ochib beradi.

*“Insonning ta’lim olish huquqini ta’minlashning xalqaro mexanizmi”*ga bag‘ishlangan ikkinchi paragrafda dissertant ta’lim olish huquqini ta’minlash bo‘yicha xalqaro mexanizmlarning tizimli va murakkab xarakterini tahlil qiladi. U xalqaro va mintaqaviy darajadagi shartnomaviy va noshartnomaviy mexanizmlar - xususan, BMTning Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar bo‘yicha qo‘mitasi, Bola huquqlari bo‘yicha qo‘mitasi, Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish bo‘yicha qo‘mitasi, Nogironlar huquqlari bo‘yicha qo‘mitasi kabi qo‘mitalari, YUNESKO, YUNISEF, XMT kabi ixtisoslashgan tashkilotlar, maxsus ma’ruzachilar instituti hamda Inson huquqlari bo‘yicha Kengash faoliyatini baholaydi.

Dissertant bu mexanizmlar faqat deklarativ yoki nazariy asos emas, balki real hayotda davlatlar zimmasiga yuklangan majburiyatlarning bajarilishini baholovchi va rag‘batlantiruvchi vosita ekanligini ilmiy nuqtayi nazardan isbotlaydi. U xalqaro hujjatlar (deklaratsiyalar, konvensiyalar, umumiy sharhlar) va monitoring institutlari (davlat hisobotlari, yakuniy tavsiyalar, tematik sharhlar) orqali ta’lim huquqining milliy siyosatga tatbiq etilishida xalqaro mexanizmlarning qanday rol o‘ynashini misollar bilan ochib beradi. Xususan, O‘zbekiston tajribasi asosida yuqorida keltirilgan qo‘mitalarining tavsiyalari mahalliy darajadagi islohotlarga ta’sir qilganiga e’tibor qaratiladi.

Dissertant shartnomaviy qo‘mitalarning faoliyati faqat hisobotlarni qabul qilish bilan cheklanmasdan, Umumiy sharhlar, yakuniy mulohazalar va individual shikoyatlarni ko‘rib chiqish orqali ta’lim huquqi bo‘yicha universal yondashuvlar

shakllanishi va milliy amaliyotga yo‘naltirilishini ta’minlashini ta’kidlaydi. O‘zbekiston Respublikasining bu qo‘mitalar bilan olib borgan hamkorlik tajribasi - xususan, berilgan tavsiyalarning qishloq ta’limi, nogironligi bo’lgan shaxslar, ayollar va bolalarning ta’limga kirish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgani - milliy siyosatga xalqaro standartlarning integratsiyasi borasidagi amaliy yondashuvni aks ettiradi.

Dissertant ushbu keng qamrovli tahlil orqali noshartnomaviy (ustav asosidagi) mexanizmlarning ta’lim olish huquqini xalqaro miqyosda ilgari surish, himoya qilish va real hayotda amalga oshirishdagi beqiyos rolini chuqur asoslaydi. BMT Bosh Assambleyasi, EKOSOS, Inson huquqlari bo‘yicha Kengash, Oliy komissar idorasi, maxsus ma’ruzachilar hamda ixtisoslashgan tashkilotlar (YUNESKO, YUNISEF, BMT Ayollar tuzilmasi, XMT, JSST) tomonidan amalga oshirilayotgan tashabbuslar davlatlarning ta’lim sohasidagi siyosat va amaliyotlariga normativ, strategik va texnik darajada ta’sir ko‘rsatmoqda.

Dissertant, ayniqsa, Universal davriy hisobot (UPR), maxsus ma’ruzachilar instituti va tematik deklaratsiyalarning zamonaviy xalqaro huquqiy muhitdagi amaliy samarasini ta’kidlaydi. Bu mexanizmlar davlatlar uchun bevosita majburiy bo‘lmasa-da, kuchli siyosiy va axloqiy bosim vositalari sifatida xalqaro huquq normalarining amalga oshirilishiga turtki beradi. O‘zbekiston tajribasi asosida qizlar, nogironligi bo‘lgan bolalar, qishloq aholisi va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar uchun ta’limga kirish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan tavsiyalar mazkur mexanizmlarning konkret amaliy ta’sirini ko‘rsatadi.

Dissertant, ta’lim olish huquqini ta’minlovchi xalqaro va mintaqaviy mexanizmlar xususan, shartnomaviy va noshartnomaviy (ustav asosidagi) institutlar o‘zaro huquqiy, siyosiy va institutsional uyg‘unlikda faoliyat yuritgandagina real natijalar berishi mumkin, degan xulosaga kelgan.

Ushbu bobning *“Insonning ta’lim olish huquqini ta’minlash bo‘yicha xorijiy davlatlar amaliyoti qiyosiy – huquqiy tahlili”* deb nomlangan uchinchi paragrafida dissertant ta’lim olish huquqining xalqaro amaliyotda qanday turlicha kafolatlanishini huquqiy tizimlar, konstitutsiyaviy normalar va ta’lim kodekslari orqali tahlil qiladi. Dissertant rivojlangan davlatlar tajribasini tahlil qilgan holda ta’lim olish huquqini samarali ta’minlashda har bir mamlakat o‘zining siyosiy, iqtisodiy va madaniy kontekstiga mos keluvchi, ammo inson huquqlariga asoslangan yondashuvni ishlab chiqqanini ta’kidlaydi. Finlandiya misolida – o‘quvchi farovonligini diqqat markaziga qo‘ygan erkin va bosimsiz tizim; Germaniyada – kasbiy yo‘naltirilgan, davlat va ishlab chiqarish o‘rtasidagi hamkorlikka asoslangan dual tizim; Kanadada – inklyuzivlik va xilma-xillikni huquqiy va texnologik asosda uyg‘unlashtirish; Fransiyada – dunyoviylik va qonun ustuvorligi tamoyillari asosida kafolatlangan teng huquqlilik; Janubiy Koreyada esa – raqamli texnologiyalarni ta’limga integratsiyalash orqali yuksak natijalar qo‘lga kiritilgan.

Har bir mamlakat o‘zining tarixiy, madaniy va siyosiy kontekstidan kelib chiqib, o‘ziga xos modelni shakllantirgan bo‘lsa-da, bu tajribalarni O‘zbekiston

sharoitiga moslashtirishda ularni to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘chirish emas, balki ehtiyotkorlik bilan gibrid model yaratish zarurati muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyaning “**Yangi O‘zbekistonda Insonning ta’lim olish huquqini ta’minlashning tashkiliy huquqiy asoslarini takomillashtirish**” deb nomlangan uchinchi bobi ta’lim olish huquqini ta’minlashning milliy mexanizmlarini chuqur o‘rganishga bag‘ishlanib, unda, birinchi navbatda, ushbu huquqni ta’minlashga qaratilgan milliy qonunchilikni takomillashtirish va tizimlashtirish yo‘nalishlari tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu bobda ta’lim olish huquqining institutsional va tashkiliy asoslarini mustahkamlash, davlat siyosati va boshqaruv mexanizmlarining roli yoritilgan. Ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlar, nogironligi bo’lgan shaxslar, ayollar, qishloq aholisi, kam ta’minlangan oilalar va boshqa zaif guruhlarning ta’lim olish huquqini amalda ta’minlash masalalari atroflicha tahlil qilingan.

Mazkur bobning *“Insonning ta’lim olish huquqini ta’minlash sohasidagi milliy qonunchilikni tizimlashtirish”* deb nomlangan birinchi paragrafida ta’lim olish huquqini ta’minlash borasida milliy qonunchilikni takomillashtirish zarurati asoslab berilgan.

Dissertatsiyada O‘zbekistonda ta’lim olish huquqini ta’minlash borasidagi milliy qonunchilikning holati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari chuqur tahlil qilingan. Ta’kidlanishicha, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ta’lim olish huquqining asosiy huquq sifatida mustahkamlanishi, “Ta’lim to‘g‘risida”, “Maktabgacha ta’lim to‘g‘risida”, “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi qonunlar va tegishli konsepsiyalar orqali milliy mexanizmning institutsional, huquqiy va siyosiy asoslari yaratildi. Shu bilan birga, amaldagi qonunosti hujjatlarda mavjud ziddiyatlar, normativ qarama-qarshiliklar va quyi darajadagi normativ ijodkorlikning ustuvorligi ta’lim huquqini to‘laqonli amalga oshirishga to‘sqinlik qilayotgani ko‘rsatilgan.

Ilmiy ish doirasida o‘tkazilgan va *2100 nafar respondent ishtirok etgan* ijtimoiy so‘rov natijalari ta’lim sohasidagi huquqiy tartibotning takomillashtirilishi zarurligini aniq ko‘rsatdi. Respondentlarning 93 foizi turli qonun va qarorlar o‘rtasida qarama-qarshiliklar mavjudligini, 75 foizi esa ta’lim olish huquqini amalda ta’minlash uchun amaldagi huquqiy asoslar yetarli emasligini bildirgan. Shuningdek, respondentlarning 90,47 foizi yagona “Ta’lim kodeksi”ni qabul qilish zarurligini qo‘llab-quvvatlagan. Ushbu natijalar jamiyatda ta’lim sohasida izchil va barqaror huquqiy tartibotga ehtiyoj nihoyatda yuqori ekanini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Ta’lim kodeksi barcha bosqichdagi ta’lim munosabatlarini yagona va izchil tartibga solib, huquqiy barqarorlikni ta’minlaydi, fuqarolarning ta’lim olish huquqini kafolatlaydi va xalqaro standartlarga moslashtirish imkonini beradi.

Ushbu bobning ikkinchi paragrafi *“Insonning ta’lim olish huquqini ta’minlashning milliy mexanizmini takomillashtirish”* deb nomlanib, unda O‘zbekiston Respublikasida ta’lim olish huquqini ta’minlash bo‘yicha milliy mexanizmning huquqiy, institutsional va siyosiy asoslari tizimli tarzda tahlil

qilinib, uni yanada takomillashtirish zarurligi ilmiy asoslab berilgan. Milliy mexanizm konstitutsiyaviy kafolatlar, sohaga oid maxsus qonunlar, ijro va nazorat organlari, sud tizimi, inson huquqlari institutlari va monitoring mexanizmlari kabi elementlarning o‘zaro uzviy faoliyatini nazarda tutuvchi kompleks yondashuv sifatida qaralgan.

Paragrafda K. Beiter, A. Sen va K. Tomasevski kabi e’tirof etilgan tadqiqotchilarning konseptual yondashuvlarini o‘zaro uyg‘unlashtirilgan holda milliy tizimga moslashtirish zarurligi asoslab berilgan. Shuningdek, dissertatsiyada milliy ta’lim tizimining pandemiyadan keyingi davr va raqamli texnologiyalar talablari bilan uyg‘unlashuvi, ta’lim resurslarining hududiy tenglikda taqsimlanishiga e’tibor qaratilishi zarurligi qayd etilgan. Ta’lim vazirligi, mintaqaviy boshqarmalar, ombudsman, fuqarolik jamiyati va xalqaro tashkilotlar o‘rtasidagi muvofiqlashtirilgan hamkorlik bu boradagi muhim omil sifatida ko‘rsatib o‘tilgan.

Dissertatsiyada O‘zbekiston tomonidan xalqaro tashkilotlarga taqdim etilgan Davriy ma’ruzalar natijasida ishlab chiqilgan 2022–2026, 2023–2025 va 2024–2027-yillarga mo‘ljallangan milliy harakatlar rejalarining tahlili orqali ta’lim olish huquqini ta’minlashda xalqaro majburiyatlarning milliy siyosatga integratsiya qilinishi samarali vosita sifatida baholangan. Bu rejalar orqali inklyuzivlik, gender tengligi, infratuzilma, pedagogik salohiyat va resurslarni hududlararo adolatli taqsimlash bo‘yicha aniq choralar belgilangan bo‘lsa-da, ularning to‘liq amalga oshirilishi uchun huquqiy barqarorlik, siyosiy iroda va institutsional uyg‘unlikka ehtiyoj mavjudligi ta’kidlangan.

